

**Diskurslarda milliy identifikatorlar (toponimika, tarixiy-madaniy kontekst)**

**Xolisov Azizbek Shokirjon o'g'li Andijon texnika instituti  
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Tadqiqotimizda o'zbek tilida shaharsozlik va qurilish terminlari muammolarini tadqiq qilish, takomillashtirish, leksikografik va sotsipragmatik muammolarni yechishda ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot qurilish va shaharsozlikni ifodalovchi teminlarning pragmatik hamda lingvokulturologik talqini bo'yicha olib borilgan tahlillar ushbu soha vakillari uchun muhim ma'lumotlar berishi, kelgusi tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, ilmiy-nazariy asos, terminlar, pragmatik tahlil, rasmiy diskurs, tahlil.

Dunyo tilshunosligida shaharsozlik va qurilish sohasiga oid terminlarning tadqiq qilish shuningdek, nazariy asoslari va sotsiomadaniy aspekti borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qurilish sohasiga oid terminlarning semantik guruhiga mansub leksemalarni nazariy jihatdan o'rganish o'zbek tilida mazkur birliklar semantikasi, nazariyasi, sotsiopragmatik talqini, o'zaro tarjimasini hamda leksikografik talqinini mukammallashtirishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi. Turli tizimli tillarga mansub bo'lgan o'zbek tilida qurilish sohasiga oid leksemalarning umumiy va farqli jihatlari, o'zaro tarjimasidagi muammolarni aniqlash hamda leksikografik talqini bo'yicha takliflar ishlab chiqish leksikografiya, lingvodidaktika, lingvopragmatika va lingvokulturologiyaning ayrim muammolariga yechim topishi bilan dolzarblik kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida milliy konseptosferani antropotsentrik tamoyillar asosida tadqiq etish, xalqning madaniy merosi va o'ziga xos dunyoqarashini til birliklarida o'rganish ustuvor yo'nalishga aylandi. Xususan, lisoniy hodisalarning turli millatlar hayotidagi funksional ahamiyati, ularning lingvokognitiv tabiati va madaniy-ma'rifiy mohiyatini yoritishga bo'lgan qiziqish jadallik bilan ortib borayotganini qayd etish lozim. O'zbek tilshunosligidagi hozirgi holat shuni ko'rsatadiki, garchi qurilish va me'morchilikka oid terminologiya muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, aynan shahar qurilishi (urban planning) sohasidagi rasmiy va norasmiy diskurs masalalari hali kompleks tadqiq etilmagan. Globallashuv sharoitida shaharsozlik terminologiyasining



nafaqat standartlashgan shakli, balki uning jonli muloqotdagi, ya'ni norasmiy diskursdagi ko'rinishlarini qiyosiy o'rganish kasbiy muloqot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. u nafaqat shaharsozlik sohasidagi lisoniy birliklarni tahlil qiladi, balki o'zbek xalqining ma'naviy hayoti, yashash tarzi va milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi "shahar" konseptosferasini ochib berishga xizmat qiladi. Urbanistik terminologiyaning rasmiy va norasmiy qatlamlarini o'rganish, soha mutaxassislari hamda aholi o'rtasidagi madaniyatlararo muloqot etikasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, mazkur yo'nalishdagi konseptual birliklarni tizimlashtirish, shahar qurilishiga oid atamalarni lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash mumkinligi bilan ham dolzarbdir.

Har qanday xalqning milliy o'zligining shakllanishi va mustahkamlanishida til, madaniyat, tarix va geografik muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xususan, milliy identifikatorlar-toponimika (geografik nomlar tizimi), tarixiy-madaniy kontekstlar, ramzlar, urf-odatlar-jamiyat xotirasini, milliy o'zlikni ifodalovchi diskurslarda muhim semantik yuk ko'taradi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy identifikatorlarning saqlanishi va diskursdagi namoyon bo'lishi, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu mavzuning tadqiq etilishi, bir tomondan, tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishmasida joylashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy g'oya va mafkura nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir.

#### **Milliy identifikatorlar tushunchasi:**

**Milliy identifikatorlar** – bu xalqning milliy o'zligini, tarixiy xotirasini, madaniy an'analarni ifodalovchi va boshqa etnik guruhlardan ajratib turuvchi belgilar tizimidir. Ular lingvistik, vizual, musiqaviy, folklor shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

#### **Toponimika - milliy identifikator sifatida:**

**Toponimlar** –geografik obyektlar nomlari bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va madaniy axborot tashuvchilardir. Masalan, "Buxoro", "Samarqand", "Termiz" kabi o'zbek toponimlari nafaqat joy nomi, balki tarixiy sivilizatsiyalarning izlarini ham o'zida mujassam etgan.

#### **Tarixiy-madaniy kontekstda identifikatorlar:**

Tarixiy shaxslar, afsonaviy obrazlar, bayramlar, qadimiy me'moriy obidalar milliy ongning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Ular adabiyot, kino, siyosiy nutq, reklama, ta'lim kabi diskurslarda ko'p uchraydi. Shunday qilib, "Rasmiy va norasmiy diskursda shahar qurilishi" mavzusidagi tahlillarimizni davom ettirib, lingvopragmatik tahlilga asoslangan ilmiy matndan misollar keltiramiz.

**Rasmiy va norasmiy diskursda** shahar qurilishi sohasidagi diskursidagi lingvopragmatik yondashuv zamonaviy urbanistik muhitda nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy, balki lingvistik-madaniy jihatlardan iborat bo'ladi. Shahar qurilishi masalasi zamonaviy urbanistik muhitda nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy, balki lingvistik-madaniy muammolarni ham qamrab oladi. Bu jarayon turli manfaatli guruhlar - hukumat vakillari, mutaxassislar, aholi, blogerlar va fuqarolik jamiyati ishtirokchilari tomonidan har xil baholanadi. Ana shu turfa baholashlar tahlili rasmiy va norasmiy diskurslardagi lingvopragmatik farqlarni ochib beradi.

**Rasmiy diskursda** shahar qurilishi taraqqiyot, modernizatsiya, infratuzilmani yaxshilash, qulay yashash sharoitlarini yaratish kabi ijobiy semantik konnotatsiyalarga ega leksik birliklar orqali ifodalanadi. Bunday matnlarda "kompleks rivojlantirish", "turar joylar barpo etilmoqda", "zamonaviy arxitektura", "transport tizimi optimallashtirilmoqda" kabi ifodalar keng qo'llaniladi. Ushbu diskursda modallik vositalari ham ehtiyotkorlik bilan tanlanadi. Masalan, "rejalanmoqda", "ko'zda tutilmoqda", "yo'lga qo'yiladi" kabi fe'l shakllari orqali harakatlar muqarrar emas, balki istiqboldagi reja sifatida taqdim etiladi. Bu esa rasmiy nutq egalarining javobgarlik yukini yumshatish strategiyasi sifatida talqin qilinadi.

Aksincha, **norasmiy diskursda** – xususan, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar chiqishlari, sharhlar va oddiy fuqarolar orasidagi muloqotda – shahar qurilishi ko'pincha tanqidiy, ba'zan esa istehzoli ruhda talqin etiladi. Bu turdagi matnlarda emotiv leksika, ekspressiv ifodalar, nutq aktlarining ochiq ijtimoiy bahosi ustuvorlik qiladi. Masalan: "Hamma joyda faqat beton!", "Bog'imizni buzib tashlashdi", "Qayerda yashil hudud?", "Yana bir ko'p qavatli dahshat!" kabi jumlar shahar qurilishi haqidagi norozilik va norasmiy diskursning subyektivligidan dalolat beradi.

Shuningdek, **rasmiy diskursda** ko'proq institutsional subyektlar: Masalan, "Prezident topshirig'iga binoan", "Hukumat qarori asosida", "Shahar hokimiyati tomonidan" kabi iboralar ko'p tilga olinadi, bu esa hokimiyat vakolatini ko'rsatadi.

**Norasmiy diskursda** esa anonim subyektlar, ko'plik shaklidagi shikoyat ohangidagi ifodalar: Masalan, "Ular bizning hududni buzdi", "Hammamiz aziyat chekyapmiz" tez-tez uchraydi. Bu farqlanishlar diskursning nafaqat lingvistik, balki madaniy va ijtimoiy kontekstlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

**Rasmiy diskurs** shahar qurilishi jarayonini idealizatsiya qilishga harakat qilsa, norasmiy diskurs uni real hayotdagi muammolar, ijtimoiy adolatsizlik, yoki ekologik xavotirlar prizmasidan yoritadi.

Umuman olganda, **rasmiy va norasmiy diskursda** shahar qurilishi masalasining lingvopragmatik talqini shuni ko‘rsatadiki, bu ikki diskurs turi o‘rtasidagi semantik va pragmatik tafovutlar fuqarolik jamiyati, siyosiy kommunikatsiya va til orqali ijtimoiy ongini shakllantirish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

**1. Korpusga asoslangan tahliliy misollar:** Tadqiqot doirasida tahlillarimiz natijalari quyidagi o‘zbek tilidagi rasmiy va norasmiy matnlardan iborat kichik korpus shakllantirildi. Korpus quyidagi manbalarni qamrab oldi.

**Rasmiy korpus:** Prezident.uz, hukumat qarorlari, shahar hokimiyati saytlari, OAV yangiliklari (2020–2024).

**Norasmiy korpus:** Telegramdagi jamoaviy kanallar, Facebook postlari, bloglar va YouTube’dagi izohlar (xususan, Toshkent, Samarqand va Andijon shaharlariga oid postlar).

Tahlil davomida leksik-semantik, pragmatik va baholovchi (evaluativ) birliklarga alohida e‘tibor qaratiladi. Ular quyidagicha ifodalanadi.

**Jadval № 3.5. Leksik-semantik differensiallar**

<b>Diskurs turi</b>	<b>Xususiyatlari</b>	<b>Rasmiy</b>	<b>Norasmiy</b>
<b>Rasmiy</b>	Yuqori chastotali so‘zlar	barpo etish, kompleks, loyihalashtirish,	buzish, tirbandlik, chang, to‘sqinlik, betonlash
<b>Norasmiy</b>	Neytral yoki ijobiy, konnotatsiyali	zamonaviy, infratuzilma	Tanqidiy va hissiy jihatdan boy

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, rasmiy va norasmiy diskursda shaharsozlikka oid qo‘llanilishidagi farqlarni rasmiy diskursda yuqori chastotali ekanligi va norasmiy diskursda esa, neytral yoki ijobiy konnotatsiyali ekanligini guvohi bo‘lamiz. Masalan, rasmiy diskursda: “Yangi massivlar barpo etilmoqda, zamonaviy yo‘l tarmoqlari loyihalashtirilmoqda”. (Prezident.uz, 2023); norasmiy diskursda: “Yashil hudud bor edi, yana bir beton devor qo‘yishdi, changdan nafas olib bo‘lmayapti”. (Facebook foydalanuvchisi, 2023)

**2. Baholovchi strategiyalar (evaluatsiya)**

Rasmiy matnlarda:

+**Evaluatsiya** → “yashash uchun qulay muhit yaratish”, “zamonaviy arxitektura”, “xalqaro talablar asosida”.

**Baholovchilar:** “qulay”, “zamonaviy”, “xalqaro darajadagi”.

Norasmiy matnlarda:

–**Evaluatsiya** → “yo‘l to‘sib qo‘yilgan”, “buzishdi”, “tirbandlikdan charchadik”.

**Baholovchilar:** “dahshatli”, “befoyda”, “qiyin”, “havo yo‘q”.

Masalan, rasmiy diskursda: “Zamonaviy arxitektura asosida qurilayotgan obyektlar aholining turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi”. ; norasmiy diskursda: “Piyodalar yo‘lagi yo‘q, faqat mashinalar uchun yo‘l. Bu shahar emas, yo‘l labirinti”.

### **3. Pragmatik aktlar va strategiyalar**

Rasmiy diskursda:

**Ilova aktlari:** “qaror qabul qilindi”, “ko‘rsatma berildi”.

**Modallik: ehtimolli-**“rejalanmoqda”, “ko‘zda tutilgan”.

Norasmiy diskursda:

**Ekspressiv aktlar:** “norozilik”, “e‘tiroz”, “ironik ohang”.

**Dialogiklik:** “Qani, biz haqimizda kim o‘ylayapti?”, “Nega hech kim so‘ramaydi?”

Masalan, rasmiy diskursda: “Hududda yangi ko‘p qavatli uylar qurilishi belgilangan tartibda davom etmoqda”. ; norasmiy diskursda: “Kimga kerak bu uylar? Bizga bog‘ kerak edi!”

Demak, fikrimizga ko‘ra, **rasmiy va norasmiy diskurslar** o‘rtasidagi farqlar faqatgina til darajasida emas, balki ideologik va ijtimoiy tafovutlarning ifodasidir. Rasmiy diskursda shahar qurilishi – bu kelajak va taraqqiyot timsoli bo‘lsa, norasmiy diskursda u - mavjud muammolar va befarqlikning belgisi sifatida talqin etiladi. Korpusga tayanuvchi bunday yondashuv rasmiy til siyosati va jamoatchilik kayfiyatlari o‘rtasidagi tafovutlarni empirik asosda aniqlash imkonini beradi.

Fikrimizcha, siyosiy diskurslarda milliy identifikatorlarning namoyon bo‘lishi **quyidagilarda anglashiladi:**

**1) Siyosiy va rasmiy diskursda.** Prezident nutqlari, davlat bayramlaridagi chiqishlar, konstitutsiyaviy hujjatlar milliy identifikatorlarni ongli tarzda yaratish va mustahkamlash vositasidir. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni bayramidagi nutqlarda “Temur tuzuklari”, “Jadidlar merosi”, “Istiqlol ramzlari” kabi iboralar doimiy ishlatiladi.

**2) Badiiy adabiyot va publitsistikada.** O‘zbek adabiyotida toponimlar va tarixiy obrazlar xalq xotirasini uyg‘otuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Aytaylik, Abdulla Qodiriy asarlarida Toshkent, Marg‘ilon, Farg‘ona kabi toponimlar milliy identitet bilan bog‘liq muhit yaratadi.

3) **OAV va internet diskursida.** Zamonaviy media, xususan, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy identifikatorlar yangi kontekstlarda qayta talqin qilinmoqda. Bu holat ularning dinamik va o‘zgaruvchan tabiatini ko‘rsatadi.

**Siyosiy va rasmiy diskursda milliy identifikatorlar.** Siyosiy nutqlar va rasmiy matnlar - davlat mafkurasi, milliy g‘oya va ideologik konsepsiyalar shakllanadigan asosiy maydonlardir. Bu sohadagi diskurslar ongli tarzda milliy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, “Buyuk ajdodimiz Amir Temur asrlar osha bizga ibrat bo‘lib, mustaqillik g‘oyasini qalbimizga singdirgan buyuk siymodir”.<sup>1</sup>

Bu kabi iboralar orqali Amir Temur obrazining siyosiy diskursda ramzlashuvi, tarixiy shaxs sifatida emas, balki millatni birlashtiruvchi ideologik timsol sifatida shakllangani ko‘rinadi.

Shuningdek, rasmiy hujjatlarda “Ona zamin”, “Vatan taraqqiyoti”, “Milliy qadriyatlar”, “Buyuk kelajak” kabi frazeologik birliklar, metaforalar vositasida milliy identifikatorlar qatlam-qatlam semantik yuk orttiradi.

**Badiiy adabiyot va publitsistikada milliy identifikatorlar.** Badiiy adabiyotda milliy identifikatorlar obrazlar, toponimlar, tarixiy voqealar, arxaik leksika vositasida ifodalanadi. Bunday diskursda ularning estetik, madaniy va emotsional qirralari chuqur ochiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Marg‘ilon, Toshkent, Xo‘ja Ahror Vali qabri, madrasalar, mahalliy udumlar orqali XIX asr oxiri Turkistonining tarixiy-madaniy konteksti yaratiladi. Bu orqali toponimlar va tarixiy realiyalar o‘quvchi xotirasida milliylik hissini uyg‘otadi.

Publitsistik matnlarda esa, ayniqsa istiqloq yillaridagi maqolalarda, milliy identifikatorlar “o‘z ildiziga qaytish”, “milliy uyg‘onish”, “ajdodlar merosi” kabi turg‘un iboralar vositasida ifodalanadi. Bu ular qanday ideologik diskursda ishlatilayotganini ko‘rsatadi.

**OAV va internet diskursida milliy identifikatorlar.** Zamonaviy ommaviy axborot vositalarida milliy identifikatorlar yangi - ko‘pincha marketing yoki siyosiy kontekstda paydo bo‘ladi. Bu ularning tabiatini o‘zgaruvchan va ijtimoiy shartlangan ekanini ko‘rsatadi. Masalan,

1. Ijtimoiy tarmoqlarda “O‘zbekona turmush tarzi”, “Navro‘z ruhida”, “Samarqand vibes” kabi so‘z birikmalari o‘zbek milliylik elementlarini zamonaviy, global kontekstda talqin qilishga xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Mirziyoyev S. (2022. 20-dekabr). *Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnoma* [Speech]. Xabar.uz. <https://m.xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>

2. Reklama va brend nomlarida: “Afsonaviy Buxoro noni”, “Samarkand Gold” yoki “Silk Road Samani” kabi iboralar milliy toponim va tarixiy chaqiriqlarning marketing diskursiga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Bunday diskurslar ko‘pincha milliy identifikatorlarni estetizatsiya (ya’ni bezak vositasi sifatida) qilsa-da, ular orqali xalq xotirasi, tarixiy identitet saqlanadi va global maydonga olib chiqiladi. Ushbu tahlil diskursiv yondashuv, ya’ni **Norman Fairclough, Teun A. van Dijk** va **Ruth Wodak** kabi olimlarning tanqidiy diskurs tahlili (CDA – Critical Discourse Analysis) asosida olib borilmoqda. Ularning fikriga ko‘ra, til orqali ideologiya va identitet uzatiladi, kuch munosabatlari ifodalanadi.

**Toponimlarning milliy identitetdagi o‘rni.** Toponimlar – geografik obyektlarning nomlari bo‘lib, ular nafaqat joyni ifodalaydi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va milliy ongining bir qismi hisoblanadi. Har bir toponim – bu xalqning tarixiy-madaniy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va muayyan ideologik hamda semantik yukka ega til birligidir. Masalan,

1. **“Toshkent”** – bu nom ikki komponentdan tarkib topgan: “tosh” (jism, mustahkamlik) va “kent” (shahar). Semantik jihatdan bu nom poytaxt shahrining qadimiylik, barqarorlik va siyosiy markaz sifatidagi obrazini mustahkamlaydi.

2. **“Buxoro”** – tarixan “vihara” (budda monastiri) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu joy qadimda diniy va madaniy markaz bo‘lganini bildiradi.

Shunday qilib, toponimlar xalqning o‘z tarixiga munosabatini, fazoviy ongini va madaniy xotirasini ifoda etadi.

**Tarixiy toponimlar va ularning semantik qatlamlari.** Ko‘plab toponimlar bir nechta tarixiy bosqichni o‘zida mujassam etadi, ya’ni ular orqali xalq o‘z tarixini “nom” orqali anglaydi.

**Jadval № 3.4.1. Tarixiy toponimlar va ularning semantik qatlamlari.**

<b>Toponim</b>	<b>Kelib chiqishi etimologiyasi</b>	<b>Semantik yuk</b>
<b>Xorazm</b>	Eroniy ildizlar “Oq suv yurtlari”	Tarixiy davlat, madaniyat beshigi sifatida
<b>Qarshi</b>	Turkchada “qal’a” Harbiy-mudofaa va siyosiy markaz	Mustahkamlik, tarixiy qarshilik timsoli

<b>Boysun</b>	“Boy” + “sun” (tog‘) Boy tog‘li hudud	Ekoturizm, madaniy folklor diskurslarida aktiv
<b>Termiz</b>	Sanskritcha “Taramita” “Narigi sohil” (Amudaryo bo‘yida)	Ipak yo‘lidagi muhim savdo va diniy markaz

Bunday toponimlar xalq tarixining geografik ifodasidir. Ular adabiyotda, siyosiy nutqlarda va turizm tili (turistik brendlar, reklama)da milliy brend sifatida qayta kontekstlanadi.

**Adabiy va siyosiy diskursda toponimlarning ramzlashuvi.** Toponimlar siyosiy va madaniy diskurslarda ramzga aylanishi mumkin. Masalan:

1. **“Toshkent ruhi”** – bu ibora siyosiy matnlarda metonimik obraz sifatida ishlatiladi va poytaxtning birdamlik, bag‘rikenglik, sabr-toqat ramzi sifatidagi obrazini yaratadi.
2. **“Samarqand ziyosi”** - adabiy diskursda ilm-fan, tarix va ezgulik markazining poetik timsoli sifatida paydo bo‘ladi.
3. **“Farg‘ona madaniyati”** – bu ibora folklor va qadimiy hunarmandchilik bilan bog‘liq diskurslarda ishlatiladi.

Adabiyotda bu toponimlar milliy o‘zlikni ifoda qiluvchi obrazlar orqali o‘quvchining emotsional ongiga ta’sir qiladi. Masalan, Cho‘lpon she’rlarida “Toshkent” - vatanning yuragi, “Marg‘ilon” - ona yurti timsolidir.

**Toponimlar va ideologik konstruktsiya.** Ba’zi toponimlar mustaqillikdan keyin qayta nomlanib, yangi ideologik semantikani kasb etdi.<sup>23</sup> Masalan:

1. **“Leninobod”** → **“Guliston”**
2. **“Oktyabr”** → **“Mustaqillik”**
3. **“Chkalov”** → **“Amir Temur”**

Bu jarayon toponimlarning faqat geosiyosiy emas, balki **milliy ongni shakllantirish vositasi** sifatida ham ishlatilishini ko‘rsatadi. Bu esa “nomlash” jarayonining ideologik va siyosiy xususiyatini ochib beradi. Shaharsozlik o‘zaro bog‘langan atamalardan iborat bo‘lib, har bir atama ma’lum bir tushuncha yoki jarayonni ifodalaydi. Terminologiyani asosiy tushunchalari, masalan, atama,

<sup>2</sup> Qodirov A. *O‘zbek toponimikasining lingvomadaniy xususiyatlari.* – Toshkent: Fan, 2017. – B.240.

<sup>3</sup> Qodirov A. *Ko‘rsatilgan manba.* – B. 2560.

terminologiya, terminologik maydon va terminosistema, shaharsozlik va qurilish tizimining mantiqiy tuzilishini ko'rsatadi. Bu tushunchalar bir-biriga bog'liq va sohaning rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Terminlar til leksik mexanizm muhimni ifodalaydi. Qurilish terminini o'rganishda, eng ko'p avvalo, tadqiqotning yangi nazariy kategoriyalarini, alohida, atama, terminologiya, terminologik soha va terminologiya tizimini zarur.

Arxitektura terminologiyasining eng xilma-xil tomonlarini ajratib ko'rsatish arxitekturaning nafaqat tarixiy va ijtimoiy ahamiyatini anglash, balki o'rganilayotgan hudud tiliga ham munosib e'tibor qaratish imkonini beradi.

Arxitektura terminologiyasi masalalarini ochib beradigan asarlarning batafsil ro'yxati va ko'rib chiqilishidan oldin to'g'ri qadam yadroviy aloqa markazi va uning rivojlanishi konsepsiyasiga murojaat qilishdir.

E. Stamatiaduning "Arxitektura lug'atining leksiko-semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlari" asari ham ahamiyatli va ko'rib chiqish uchun zarurdir. Tadqiqot to'rt til: ingliz, nemis, yunon va rus tillari namunasi asosida kognitiv-funksional tilshunoslik aspektida olib borildi. Asarda I.Brodskiy me'morchilik terminologiyasining funksional va stilistik xususiyatlari ko'rib chiqilgan. "Arxitektura lug'atini rivojlantirishda lingvistik va tildan tashqari omillar" tadqiqotining qurilish terminologiyasi bo'shliqdan paydo bo'lmagan. Insonlar hayoti, ularning hunarmandchilik faoliyati, oilaviy munosabatlar va dam olish madaniyati leksik ramzlar va tasvirlarni yaratgan. Tarixiy retrospektivani tahlil qilish asosida aytish mumkin bo'ladiki, o'zbek qurilish terminologiyasi ko'pincha tasviriy-assotsiativ xususiyatga ega bo'lgan.

Qurilish sohasi leksikasi insoniyat tarixidagi eng qadimgi leksikalardan biri hisoblanadi, chunki inson o'z hayoti davomida doimo turar-joy va xo'jalik obyektlariga ehtiyoj sezgan. Shu sababli, qurilish terminologiyasi insoniyat tajribasining ajralmas qismi bo'lib, alohida terminlar va qurilish tushunchalarida mujassamlangan. Shu munosabat bilan, o'zbek tilidagi qurilish terminologiyasini o'rganish qurilish ishlarining rivojlanishini tahlil qilish bilan chambarchas bog'liq holda olib borilishi lozim. Qurilish atamalarining shakllanish tarixi bevosita qurilish ilmining rivojlanish tarixi bilan bog'liq bo'lib, qurilish nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq holda taraqqiy etgan [Dumitru, 2009: 9]. Ingliz tilidagi qurilish terminologiyasi maxsus leksikadan iborat bo'lgan tizim bo'lib, uning rivojlanishi qurilish jarayonlarining shakllanishi hamda ingliz tilining o'zgarishlari

bilan bevosita bog‘liq. Bu esa termin tizimining tarkibiy-semantik tuzilishida va o‘ziga xos xususiyatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilidagi qurilish terminologiyasi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonidan o‘tgan bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy-texnik kommunikatsiya vazifasini bajarish uchun lingvistik vositalarning tanlanishi natijasida shakllangan.

Qurilish sohasi leksikasining qadimiyligi uning insoniyat ehtiyojlari bilan bog‘liqligi bilan izohlanadi. Barcha davrlarda jamiyat o‘zining texnologik imkoniyatlariga qarab turar-joy va infratuzilmaviy obyektlarni barpo etgan. Shu sababli, qurilish terminologiyasi ilmiy-texnik kommunikatsiyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ba‘zi qurilish atamaları qadimgi turkiy tilga borib taqaladi. Masalan, “uy” so‘zi qadimgi turkiy tildagi “öy” shaklidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab chodir va qattiq poydevorsiz yashash joyini anglatgan. “Devor” esa qadimgi turkiy “tavir” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin va dastlab to‘siq, himoya ma’nosida ishlatilgan.

Shuningdek, “ustun” so‘zi ham turkiy tilda “tayanch”, “ko‘taruvchi element” ma’nosida bo‘lgan. Bu so‘zlar qadimgi turkiy yodgorliklarda uchraydi va hozirga qadar o‘z shaklini saqlab qolgan.

O‘zbek tiliga arab va fors tillaridan ko‘plab qurilish terminlari o‘zlashgan. Masalan, “me’mor” so‘zi arabcha “معمار” (muammar) so‘zidan olingan bo‘lib, binokor, quruvchi ma’nosini anglatadi. “Imorat” so‘zi fors tilidan kelib chiqqan bo‘lib, bino, inshoot ma’nosini bildiradi. “Gumbaz” so‘zi ham fors tilidan o‘zlashib, yarim doira shaklidagi tom konstruksiyasini anglatadi.

Ba‘zi arabcha o‘zlashmalar fonetik jihatdan o‘zgarib ketgan. Masalan, arabcha “sahn” so‘zi (hovli, ochiq maydon) o‘zbek tilida “sahna” shaklida ishlatiladi, garchi uning qurilishga oid ma’nosi asosan tarixiy inshootlarda qo‘llanilsa ham.

Sobiq sovet davrida qurilish sohasida rus tilidan juda ko‘p terminlar o‘zlashgan. Masalan, “beton”, “kran”, “plita”, “armatura” kabi so‘zlar o‘zbek tilida ham aynan shu shaklda qabul qilingan. Biroq, ba‘zi so‘zlar milliy ekvivalent bilan almashtirilgan. Masalan, ruscha “fundament” so‘zi o‘zbek tilida “poydevor” shaklida ishlatila boshlangan. Shuningdek, ruscha “kirpich” so‘zi o‘zbek tilida “g‘isht” so‘zi bilan almashtirilgan. Ba‘zi terminlar esa aralash holda qo‘llanadi, masalan, “panel” va “panelli uy” tushunchasi asosan rus tilidan olingan, ammo milliy muqobili “yig‘ma konstruksiya” yoki “yig‘ma uy” shaklida ifodalanishi mumkin. Hozirgi kunda qurilish sohasida ingliz tilidan kirib kelayotgan terminlar ham ko‘paymoqda. Masalan, “smart

home” tushunchasi o‘zbek tilida “aqli uy” shaklida tarjima qilinmoqda. “Eco-friendly construction” atamasi esa “ekologik qurilish” shaklida ishlatila boshlagan. Ba’zi terminlar esa o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashmoqda. Masalan, “ventilation” so‘zi “ventilyatsiya” shaklida, “insulation” so‘zi esa “issiqlik izolyatsiyasi” sifatida qo‘llanilmoqda.

O‘zbek tilida qurilish sohasida yangi terminlar yaratish uchun qo‘shimchalar yordamida so‘z yasash keng qo‘llaniladi. Masalan, “betonlash” so‘zi “beton quyish jarayoni”ni anglatadi. “G‘ishtkor” so‘zi esa “g‘isht bilan ishlovchi usta” ma’nosida ishlatiladi. Ikki so‘z birikishi orqali ham yangi terminlar hosil bo‘ladi. Masalan, “yig‘ma konstruksiya” atamasi “tayyor qismlardan yig‘iladigan bino”ni anglatadi. “Issiqlik izolyatsiyasi” esa binoning issiqlikni saqlash qobiliyatini oshirish uchun ishlatiladigan materiallarni bildiradi. Ba’zi so‘zlar esa semantik rivojlanish orqali yangi ma’no kasb etgan. Masalan, “poy” so‘zi dastlab “asos” ma’nosida ishlatilgan bo‘lsa, hozirda “poydevor” so‘zi binoning tayanch qismini anglatadi.

”Qoplama” so‘zi esa dastlab oddiy narsalarni yopish ma’nosida bo‘lsa, keyinchalik qurilish materiallariga nisbatan ishlatiladigan termin sifatida shakllandi.

O‘zbek tilida qurilish terminlarining shakllanishi quyidagi asosiy omillar bilan bog‘liq:

1. Qadimgi turkiy ildizlardan kelib chiqqan milliy so‘zlar.
2. Arab va fors tillaridan o‘zlashgan tarixiy atamalar.
3. Rus tilidan kirib kelgan terminlar va ularning milliy muqobillari.
4. Ingliz tilidan yangi texnologiyalar bilan bog‘liq o‘zlashmalar.
5. So‘z yasalishi va semantik rivojlanish natijasida hosil bo‘lgan milliy terminlar.

Kognitiv terminologiyada atama “bilish (kognitsiya) – fikriy kategoriya bo‘lgan konseptdan verballashgan konseptga o‘tish jarayonida tug‘iladigan, shakllangan, chuqurlashadigan dinamik bir hodisa, konsepsiya - aqliy kategoriya - ma’lum bir nazariya, bilimning ma’lum bir sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan dinamik faoliyatdir”<sup>45</sup>.

“Qoplama” so‘zi turkiy “qop” – fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, “yuzani yopmoq”, “ustini berkitmoq” ma’nolarini bildiradi. Bu atama dastlab oddiy matolar yoki yog‘och qoplamalarga nisbatan ishlatilgan, lekin qurilish terminologiyasida devor, pol yoki tomga ishlatiladigan qoplama materiallari ma’nosini ham olgan.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Milliy Matn Korpusi. (2024). <https://corpus.uz>

<sup>5</sup> Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: Либроком, 2009. – С. 21.



**Adabiyotlar ro'yhati**

1. Van Dijk, T. A. (1998). Ideology: A Multidisciplinary Approach. - London: Sage.- P. 14.
2. Вюстер Э. Введение в общую терминологию и терминологическую лексикографию.– Нью-Йорк, 1999. 215 с. ([Introduction to general terminology and terminological lexicography]. –NewYork, 1999.
3. Лотте Д.С. Основы построение научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. – М.: Изд-во АН СССР, 1971.
4. Сафаров Ш. С. Лингвистика дискурса. Челябинск, 2018. –315 с;